



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY  
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRALLASHDAN  
MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI

*Nizomiy nomidagi TDPU  
Musiqqa madaniyati fakulteti  
dotsent v.b. **Raxmonberdiyeva S.M.***

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri musiqa ekanligi, integratsiyalashgan musiqa mashg'ulotlarida fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar yaratishi, integratsiyalashgan mashg'ulotlarni rang-barang san'at turlari vositasida bola ongida dunyoning go'zal va betakror yaxlit obrazini shakllantirish bilan belgilanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, ta'lim-tarbiya, metod, integratsiya, ijodiy, san'at, ovoz, intonatsiya, musiqiy – ritmik harakatlar.

**Аннотация:** В статье говорится о том, что одним из важнейших направлений обеспечения повышения эффективности учебно-воспитательного процесса в дошкольных образовательных организациях является музыка, целенаправленное использование междисциплинарных коммуникаций в интегрированном музыкальном обучении создает огромные возможности в развитии творческих способностей детей, что интегративное обучение определяется формированием в сознании ребенка красивого и неповторимого целостного образа мира посредством красочных видов искусства.

**Ключевые слова:** технология, воспитание, метод, интеграция, творчество, искусство, голос, интонация, музыкально-ритмические движения.

**Annotation:** The article will talk about the fact that one of the important directions of ensuring an increase in the effectiveness of the educational process of



*preschool educational organizations is music, the targeted use of interdisciplinary communication in integrated music sessions creates tremendous opportunities in the development of children's creative abilities, and the formation of a beautiful and unique holistic image of the world.*

**Keywords:** *Technology, education, method, integration, creative, art, sound, intonation, musical-rhythmic movements.*

Shaxsga xos asosiy fazilatlar bolaning ilk yoshlaridan boshlab shakllanishini inobatga olgan holda hozirgi zamon maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni ma'nan boy va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni izlab topish va amaliyotga tatbiq qilish borasida to'xtovsiz takomillashib borayotganligi bilan harakterlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri globallashtirish davr axborot oqimlarini faol o'zlashtirish sharoitida xilma-xil san'at turlari asosida bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda integratsiyalashgan mashg'ulotlarni o'tkazish hisoblanadi.

Amaliyot bolalarga berilayotgan ma'lumotlar har doim ham sifatli qabul qilinmayotganligini ko'rsatmoqda va o'z-o'zidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan innovatsion metod va yondashuvlarni ishlab chiqishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. [4; 15-16b.]

Integratsiyalashgan musiqa mashg'ulotlarida fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, dunyo ta'lim-tarbiya amaliyotida integratsiyalashgan mashg'ulotlarda fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish juda keng qo'yilgan. [6; 142-145b.] Tabiiy tarzda har bir pedagog o'z xususiy metodikasini ishlab chiqish asnosida integratsiyalashgan mashg'ulotlarga kichik bo'lsa ham qandaydir yangilik kiritishga harakat qiladi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va o'stirishda musiqa, tasviriy san'at, nutq o'stirish, teatrlashtirish, jismoniy tarbiya faoliyatlarini integratsiyalash qo'l keladi.



Integratsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim-tarbiyaning o'ta muhim va istiqbolli metodologik yo'nalishlaridan biri sanaladi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlarning bosh maqsadi rang-barang san'at turlari vositasida bola ongida dunyoning go'zal va betakror yaxlit obrazini shakllantirish bilan belgilanadi. [8; 67-69b.] Ularni samarali qo'llash uchun quyidagi vositalardan maqsadli foydalanishni tashkil qila bilish talab qilinadi.

- tasviriy san'at– rasm (shakl, hajm, proportsiya, poza, umumiy kompozitsiyada turli predmetlar uyg'unligi)
- nutq o'stirish- ertak, she'r, hikoyalar, suhbat, topishmoqlar, maqollar, hikmatlar,
- teatrlashtirish – dramalashtirishning ifodali vositalari:
- harakatlar, jestlar, imo-ishoralar, ovoz, intonatsiya, holatlar;
- jismoniy tarbiya-gimnastika, musiqiy – ritmik harakatlar, mashqlar

Turli yosh guruhlarida tashkil qilinadigan integratsiyalashgan mashg'ulotlarda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat turlari o'sha guruhlardagi bolalarning psixologik, yosh va fiziologik xususiyatlarini to'la mos bo'lishi inobatga olinishi o'ta muhim. [5; 489-494b.] Masalan, kichik yoshdagi bolalar bilan o'tkazadigan integratsiyalashgan mashg'ulotlarda quyidagi faoliyat turlaridan kompleks tarzda qo'llash mumkin:

- nutq o'stirish - ertak, she'r, qo'shiq;
- jismoniy tarbiya- musiqiy – ritmik harakatlar, mashqlar;

O'rta yoshdagi MTT guruhlarida e'tirof etilayotgan talablar musiqa ham teatrlashtirish hisobiga yanada boyitiladi:

- · musiqa – ohang, ritm, uyg'unlik -garmoniya, dinamika, intonatsiya;
- · teatrlashtirish - dramalashtirishning ifodali vositalari;
- · harakatlar, jestlar, imo-ishoralar, ovoz, intonatsiya, holatlar;

Katta yoshdagi MTT guruhlarida o'tkazadigan integratsiyalashgan mashg'ulotlarimda e'tirof etilayotgan talablar musiqa, tasviriy san'at, nutq o'stirish, jismoniy tarbiya hamda teatrlashtirish vositalaridan foydalaniladi. [3; 67-69b.]





Integratsiyalashgan mashg'ulotlarni katta guruhlarda amalga oshirishda turli usullardan foydalanish tavsiya qilinadi. Bu metod bolalarni o'zbek xalq cholg'ularida ijro etishda individual tarzda talqin qilinadi. masalan, Moychechak gulining har bir yaprog'i bilan biror o'zbek xalq cholg'usi belgilanadi. Yaproqlardan birini tanlagan bola belgilangan xalq cholg'u nomi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish bilan birga o'sha cholg'uda ijro mahoratini ham namoyish etishga, ya'ni uni chalishga harakat qiladi.[2: 47-49b]

Tayyorlov guruhlarida sanab o'tilgan faoliyatlarning barchasidan to'laqonli foydalaniladi, masalan, «Flomasterlar» metodiga murojaat qilamiz. MTT bolalari musiqa eshitish asnosida qo'llaridagi flamasterlari bilan doska yoki daftarlarida musiqa xarakteriga mos tuyg'ularini ranglar vositasida ifodalashga harakat qiladilar. Bunda mayin va mahzun ohanglarni to'liq chiziqlar, o'ynoqi ritmlarni esa qisqa yoki uzun to'g'ri chiziqlar bilan chizishadi, shuningdek, jamoaviy tarzda musiqa xarakteriga mos ertak aytishlari, qo'shiq kuylashlari hamda turli jismoniy mashqlarni bajarishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bolani har tomonlama musiqiy madaniyatini shakllantirishda, uni estetik tarbiyalashda integrallashgan mashg'ulotlarning o'rnini kattadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Rauf Kadyrov. Music is pedagogical. T: Flow guide. "Music" published. 2018.
2. Rachmonberdieva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF METHODS OF VOCAL PEDAGOGY IN THE EDUCATION OF THE VOICE OF STUDENTS IN THE PERIOD OF MUTATION. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* (pp. 142-145).
3. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). Oquvchilar estetik didini shakllantirishda musiqa tinglash faoliyatining tutgan orni. *Интернаука*, (1-3), 67-69.
4. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). Musiqa darslarida bolalarning musiqiy ijodiy faoliyatini shakllantirishning samaradorligi. *Интернаука*, (19-6), 15-16.



5. Raxmonberdiyeva, S. (2022). MTT da bolalarni maqom asarlari tinglatishga o'rgatish va uni idrok qilish ko 'nikmalarini rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 489-494.
6. Karimova, D. (2023). Musiqa o'qitishning pedagogik tashxisi va metodlari. *Наука и технология в современном мире*, 2(7), 47-49.
7. Karimova, D. A. (2023). Musiqa o'qitish metodikasi: boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash faoliyati. *Science and Education*, 4(3), 389-394.
8. Trigulova, A. K., & Kimsanov, O. (2021). Musical sense of hearing and methods of its development in the process of piano performance. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1002-1004
9. Trigulova, A. X. (2021). Formation Of The Cognitive Activity Of 5-Class Secondary School Students With The Familiarity Of The Instruments Of The Symphony Orchestra. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 428-431.
10. Trigulova, A. (2024). THE SIGNIFICANCE OF BV ASAFYEV'S INTONATION THEORY IN THE INSTRUMENTAL-PERFORMANCE TRAINING OF A MUSIC TEACHER. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(09), 192-195
11. Trigulova, A. X. (2023). Musiqiy faoliyat vositasida talabalarning ma'naviy dunyosini shakllantirish. *Science and Education*, 4(5), 1208-1211.